

## **DEVIANT XULQ-ATVOR RIVOJLANISHINING OLDINI OLISHDA RUHIY TARBIYA USULLARIDAN FOYDALANISH**

**Xasanova Iroda Alimjonovna, JDPU Umumiy psixologiya kafedrasи  
o‘qituvchisi**

**Rashidova Noila Bosim qizi, Pedagogika-psixologiya fakulteti 2-kurs  
talabasi**

**Annotatsiya:** Yosh avlod o‘rtasida deviant xulq-atvorning rivojlanishi va jamiyatdagi jinoyatchilik hodisalarining o‘sishi o‘rtasida o‘zaro bog’liqlik mavjud.

Noqonuniy xatti-harakatlar qilish istagi bolalar va o‘spirinlarning deviant xatti-harakatlar qilish istagi rivojlanishi bilan ortib bormoqda. Shuning uchun deviant hatti-harakat kuzatilayotgan yoshlarni tarbiyalashda hisobga olinishi kerak bo‘lgan ijtimoiy, biologik va psixologik omillarga bog’liq.

**Kalit so‘zlar:** Deviant, yoshlar, xulq-atvor, og’ish, jinoyatchilik, profilaktika, ruhiy tarbiya, din.

Xulq-atvorning ijtimoiy normalariga zamonaviy jamiyatning barcha a’zolari rioya qilishlari kerak. Ba’zida ba’zi odamlar qabul qilingan qoidalar va me’yorlarga zid

Zid bo‘lgan deviant yoki deviant xulq-atvorni namoyish qilib, belgilangan doiradan chiqib ketish odatiy holdir. Bunday xatti-harakatlarning alomatlari bo‘lgan odamning belgilarini bilish va buni qanday qilib tuzatish mumkinligini tushunish foydalidir. Deviant xulqning oldini olish faoliyati umumiy va maxsus tadbirdan biri, ular ijtimoiy faoliyatni turli darajalarini qamrab oladi. Muvaffaqiyatli profilaktik ishlarning asosiy shartlari: uning ixcham yig’ilganligi, ketma – ketligi, uzviyligi, dolzarbligi, toifaga to‘g’ri bo‘linganligi. Ijtimoiy muhitdan kelib chiqqan holda diniy qadriyatlar vositasida ana shunday deviantlikka xoslikni tuzatish mumkin. Chunki din inson ma’naviyatini ezgulikka yetaklovchi omildir.

Birinchi darajagi profilaktika ishlari – noma’qul xossalarning ta’sirini yo‘qotishga, shu xususiyatlarga nisbatan immunitet hosil qilishga qaratilgan chora – tadbirdadir. Bu tadbirdar o‘smirlar orasida keng yo‘lga qo‘yilishi mumkin. Ikkinci darajadagi ishlar esa, asab – ruhiy tizim buzilishini ilk davrda aniqlab, uni tuzatishga, “xavfli guruh”dagi o‘smirlar bilan ishlashga, endi shakllanayotgan deviant fe’lga ega o‘smirlarni qayta tarbiyalashga qaratilgan. Uchinchi darajadagi ishlar – bu asab – ruhiy tizim buzilishidan kelib chiquvchi xulq – atvor illatlarini davolash bo‘yicha olib boriladigan maxsus faoliyat deviant xulqli o‘smirlarning o‘ta og’ir fe’l – atvorni namoyon qiluvchi qilmishlarini oldini olishi mumkin. Ruhiy profilaktika ishi uch darajali oldini olish choralaridan iborat bo‘lishi mumkin. Qanday uslubda amalga oshirilayotganiga qarab, ruhiy profilaktika ishi quyidagi shakllarda amalga oshirilishi mumkin:

- Ijtimoiy – ruhiy va axloqiy treninglar

- Namunaviy dasturlar
- Psixologik maslahatlar
- Komplekslik – jamlangan, umumlashgan tadbirlar
- Ommaviy guruhlashishni ilgari surish
- Ma'lumotlarning xosligi
- Salbiy xotimani iloji boricha chetlab o'tish
- Diniy va an'anaviy rituallar
- Kelajakka intilish istiqboli, reja asosida harakatlanish.

Deviant xulqli o'smirlarga ko'rsatiladigan yordam, asosan, ikki yo'nalishda bo'ladi. Ruhiy jihatdan oldini olish, ruhiy tuzatmoq va oqlamoq. Psixologik tashxis qo'yish – psixodiagnostika – kerakli bo'lgan, ammo hayotiy zarurat sanalmaydigan faoliyatdir. O'smir yoshlar bilan ruhiy profilaktika ishini olib borishning turli shakllari bor. Ilmiy – ommabop adabiyotlarga asoslanib, ularni yettita shaklga umumlashtirgan holda amalga tatbiq estish mumkinki, aynan shu shakllar, nafaqat chet davlatlarda, qisman O'zbekistonda ham qo'llanilib kelinmoqda.

Birinchi shakl – ijtimoiy muhitni tashkil qilish. Uning asosida atrof – muhitni deviant xulqli o'smirlarga bo'lgan ta'siri haqidagi tasavvurlari yotadi. Atrofdagi muhitga ta'sir qilib, shaxsni salbiy xulqini o'zgartirish mumkin. Bunda o'smirning deviant xulqini muhokama qiluvchi jamoatchilikning ta'siri ham ish berishi mumkin. Faoliyat davomida oilaga, alohida shaxsga suyanish mumkin. Yuqoridagi shakl negizida sog'lom turmush tarzini, jismoniy tarbiyani, sport bilan shug'ullanishni targ'ib qilish bilan deviant xulqqa bog'lanib qolishning oldinin olish mumkin. Ayniqsa, bola o'z bo'sh vaqtini o'tkazadigan joylarda profilaktika ishllarini olib boorish kerak. Ko'chalarda lider – o'smirlar tayyorlash orqali yoshlar bilan ishlashni yo'lga qo'yish mumkin. Shu ishlarni zamirida o'smirlarni nomaqbul xatti – harakatlaridan himoya qilish, ularni qo'llab turuvchi, qayta tarbiyalovchi xududlarni yaratish yotadi. Lekin, bu ishlarni asosiy kamchiligi – ijtimoiy holat bilan deviant xulqning bog'liqligini yetarlicha o'r ganilmaganligi hisoblanadi. Umuman olganda, birinchi shakl asosida faoliyat olib borish yaxshi natija beradi.

Ikkinchi shakl bo'yicha profilaktika olib borish usuli – axborot yetkazish. Bu ancha ommalashgan yo'nalish bo'lib, unda leksiya, suhbat, maxsus adabiyotlar va telefilmlardan foydalilaniladi. Bunday yondashuvning asosiy maqsadi – shaxsning bilish faoliyati va qiziqishlariga ta'sir qilib, unda kerakli, to'g'ri xulosa chiqara olish qobiliyatini shakllantirishdir. Buning uchun, masalan, giyohvand moddalarning sog'liqqa va shaxsga qanchalik halokatli ta'sir qilishi haqidagi aniq faktlarga asoslangan statistik ma'lumotlar va misollarda keng foydalanish zarur. Ko'pincha bunday ma'lumotlar qo'rqtish tusida bo'ladi. Shuningdek, ta'sir qilish davomida giyohvand moddalarning yomon oqibatlari sanab o'tiladi va deviant xulqli o'smirlarning ayanchli taqdiri, shaxs sifatida tanazzulga yuz tutish hollari

tasvirlab beriladi. Bu shaklda profilaktika ishini olib boorish axborot bilish jarayoniga ta'sir qilishi mumkin, ammo shaxs o'z xulqini tubdan o'zgartirmasligi ham kuzatiladi. O'z ta'siri bo'yicha bilish jarayoni deviant xulqning darajasini pasaytirmaydi. Aksincha, salbiy deviant holatlar bilan tanishuv, ba'zi o'smirlarni unga qiziqtirib qo'yadi. Va ko'pincha ma'lumotlar o'z vaqtida emas, juda erta yoki juda kech qolib beriladi. Tajribalar shuni ko'rsatadiki, giyohvandlikning zararlari, halok etuvchi oqibati haqidagi suhbatlarni 14 yoshdan oldinroq olib borish kerak. Bu suhbatlarni tuzishda shunga e'tibor berish kerakki, suhbat davomida giyohvand modda to'liq tasvirlanib, uning beradigan "lazzati" haqida so'z yuritilmasin. Suhbat mazmuni deviant xulqning ayanchli oqibatlari va unga qarshi kurashish hayotiy zaruratga aylanishi lozimligi haqida bo'lsin. Bunday profilaktika shaklini rivojlantirish, ta'sirini oshirish uchun qo'rqtish ruhidagi ma'lumotlarni kamaytirib, qolgan ma'lumotlarni yoshga, jinsga, ijtimoiy kelib chiqishga qarab ishlatishni talab qiladi. Profilaktika ishlarini uchinchi shakli – ijtimoiy zarur bo'lgan ko'nikmalarni faol o'rgatishni singdirishdir. Bu shakl bo'yicha ishlashda trening o'tkazish vositasidan foydalaniladi. Bugungi kunda trening o'tkazishning quyidagi formalari mavjud. Salbiy ijtimoiy ta'sirga qarshi bo'lgan rezistentlik treninggi. Treningning maqsadi: deviant xulq yo'nalishini yaxshi xususiyatlar tomon burish. Buning uchun o'smirda quyidagi ko'nikmalar shakllantiriladi – ba'zilarning salbiy ta'siriga qarshi o'z fikriga ega bo'lish, ba'zi ichuvchi kattalar ta'siriga tushmaslik, kimdir ta'sir – bosim o'tkazayotganda yo'q deyishni ham bilish. Agressivlik va affektiv – qimmatli bilim berish bu deviant xulqqa emotSIONAL holati ta'sirini olib beruvchi faoliyat. Ruhiy zo'riqishlar oqibatida kelib chiquvchi muammolarning oldini olish uchun o'smirlarning ruhiyatini o'rganishga, stress holatlarda o'zini munosib tuta olishga o'rgatishadi. Guruhda ishslash davomida qaror qabul qilish, o'z – o'zini to'g'ri baholash, o'zini o'rganish va hayotiy qadriyatlarini qadriga yetish kabi ko'nikmalar shakllantiriladi. Hayotiy ko'nikmalarni shakllantirish treninggi. Hayotiy ko'nikmalar deganda – shaxs uchun kerakli bo'lgan ijtimoiy bilish jarayono tushuniladi. Avvalo. Bular – muloqot qilish, do'stona aloqada bo'lish va muammolarni do'stona hal qilishdir. Shuningdek, buning zamirida javobgarlikni his qilish, maqsad qo'yish, o'zining qiziqishlari va pzitsiyasini himoya qila olish ham bor. Xulosa qilib aytganda, asosiy kerakli ko'nikma, bu o'zini boshqara olish, o'ziga qat'iy ishonch, o'zini o'zgartira olish, atrofga ta'sir o'tkaza olishdir. Profilatika ishlarining to'rtinchи shakli – deviant xulqqa muqobil xulqni shakllantirish. Bu shaklda deviant o'smirlar bilan ishslash deviant xulqning o'rnini bosuvchi xulqni topishi bilan bog'liq. Masalan, giyohvand moddalarga bog'liqlik o'rnini o'z – 'ziga ishonch

ruhiga o‘zgartirish juda katta yutuq hisoblanadi. Chunki, ko‘pgina giyohvandlar psixotrop moddalarning aynan kayfiyatni ko‘tarish xususiyatiga qiziqadilar, kayfiyatni maqbul yo‘llar bilan o‘zgartirilishi profilaktika ishining asosidir. Muqobil shaklda kayfiyatni ko‘tarish usullari:

- Diniy marosimlar
- Sayohatlar, tog’larga chiqish
- Alpinizm
- Ekstremal sport turlari
- Sevgi
- Kerakli muloqot
- Ijod
- Faoliyat
- Xayriya ishlari

Bu mashg’ulotlardan istalgan vaqtida foydalanish mumkin. Oila bilan hamkorlikda olib borilayotgan profilaktika ishlardan quyidagilar asosiylaridir: muntazam qiziqishlarning erta boshlanishi, tarbiyalash, yaxshi ko‘rish va yoqimtoy bo‘lish qobilyatini shakllantirish, mehnat qilish va bo‘sh vaqtini unumli o‘tkazishni bilish. Ota – onalar shuni bilishlari zarurki, shaxsni tarbiyalash bolaning yoshlik chog’idan sport, san’atga bo‘lgan qiziqishlarini tarbiyalashdan boshlanadi. Agar o‘smir yoshigacha bolada ijodiy qobilyatlar tarbiyalanmasa, bunday shaxs yillar o’tkan sari yomonliklarga o‘ch bo‘laveradi.

Profilaktika ishlarining beshinchi shakli – sog’lom turmush tarzining shakllantirilishi. Bu o‘smirning nechog’lik o‘z sog’lig’i, atrof – muhit bilan garmoniyasiga, o‘z organizmiga javobgarligi bilan belgilanadi. Insonning o‘z sog’lig’iga ehtiyyotkorona munosabati, kasal keltiruvchi omillardan chetlashib yura olishi, ayniqsa, shaxsning xislatlaridan deb baholanadi. Sog’lom turmush tarsi deganda – yaxshi, vitaminli taomlarni yeyish, muntazam jismoniy faoliyat bilan shug’ullanish, mehnat va damning ketma – ketligiga rioya qilish, tabiat bilan garmoniyada yashash, ortiqcha dabdabaga yo‘l qo‘ymaslik tushuniladi. Bunday hayot tarzi ekologik tafakkurga va jamiyatning rivojlanish darajasiga ham bog’liq.

Profilaktikaning oltinchi shakli – shaxsiy resurs (quvvat)larni safarbar qilish. Artterapiya shaxsning ijobiy sifatlarini faollashtirish, masalan, sport bilan shug’ullanish, ijodiy faoliyat, guruhlar, fan-klublarda bo‘lish kabilalar. O‘z navbatida yuqoridagidek ishlar shaxsning sog’lon va ijobiy, ijodiy hayotda ishlashiga xizmat qiladi.

Profilaktika ishining yettinchi shakli – deviant xulqning salbiy oqibatlarini yo‘qqa chiqarish (minimizatsiya). Bu shakllardagi ishlar shakllanib bo‘lgan salbiy fe’l – atvorga nisbatan qo‘llaniladi. Bu faoliyat yomon fe’l – atvorning oqibatlarini yo‘qotishga qaratilgan. Masalan, giyohvandlarga kerakli tibbiy yordam ko‘rsatish, uning ayanchli oqibatlarini aniqlashtirish kabilalar. Deviant xulqli o‘smirlar bilan olib boriladigan profilaktika va tuzatish ishlari ijtimoiy – ruhiy xususiyatlarga ega. Deviant xulq ustida olib boriladigan ishda dastlab yakka tartibdagi ishlarni olib

borish maqsadga muvofiq, chunki guruhda o'smirlar bir – biriga salbiy ta'sir qilishi mumkin.

Shu paytning o'zida oila bilan ham ishlash kerak. oiladagi munosabatlarning ahvolini tahlil qilib bo'lgan so'ng, individual ish bilan birga guruhda ham ish olib boorish kerak. tuzatish ishlari olib borilganda, o'smirning ijtimoiy qadriyatlarini, qarashlar va qobilyatlarini hisobga olish kerak, bu mezonlar shaxs dunyoqarashini shakllantiradi. Bolaning bo'sh vaqtini iloji boricha foydali ishlar bilan band etib, uni ijobiy shakllanish vositalari: kitob o'qish, o'z – o'zini takomillashtirish, uy ishlari, musiqa va san'at, sport bilan tarbiyalash kerak. Shuni hisobga olish kerakki, deviant xulqli o'smirlarga nisbatan olib borilgan tarbiyaviy profilaktik ishlar faqatgina o'smirlarning o'zlariga qaratilgan bo'lishi mumkin emas. O'smirni to'liq tuzatish uchun uning atrofidagi muhitni o'zgartirish darkor.

Deviant xulqli o'smirga jamoatchilik tarafidan ta'sir qilinishi quyidagi shakllarda bo'lishi mumkin: huquqiy choralar, tibbiy aralashuv, pedagogik ta'sir, ijtimoiy himoya va ruhiy yordam kabilar. Deviant xulqli o'smirning og'ir fe'li va davomli illatlari sababidan tuzatish, qayta tarbiyalash ishlarini yaxshi tashkil qilingan ijtimoiy – pedagogik va ruhiy faoliyat ketma – ketligi kabi qurish talab etiladi.

Profilaktika ishlarining samarasi quyidagi belgilar darajasi bilan baholanadi: salbiy xulqning kamayishi darajasini ko'rsatuvchi obyektiv belgilar (masalan, alkogol iste'mol qilishning kamayishi, yo'qqa chiqishi). Salbiy xulqning kamayishi darajasini ko'rsatuvchi subyektiv o'zgarishlar (masalan, sog'lom turmush tarzida yashashni xohlash). Ijobiy o'zgarishlarning asosiy mezonidan biri – ijtimoiy munosabatlarni to'g'ri qurishga bo'lgan ko'nikmaning shakllana boshlashidir.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Воспитание трудного ребенка : Дети с девиантным поведением /Под ред.М И . Рожкова М ,2001.
2. Frolov S.S sotsiologiya-M Timsollar 1996
3. Moskva davlat ijtimoiy universiteti.Bolalar va o'smirlarning deviant xattiharakatlari.Muammo va yechimlar// Moskva shahar ilmiy-amaliy konferensiya materiallari.-M Uyushma 1996
- 4.И.А.Хасанова. (2022). КИЧИК МАКТАБ ЁШИ ЎҚУВЧИЛАРИНИНГ ТАФАККУР ЖАРАЁНЛАРИНИ ШАКЛАНТИРИШДА ИНТЕРФАОЛ УСУЛЛАРНИНГ ЎРНИ. EURASIAN JOURNAL OF SOCIAL SCIENCES, PHILOSOPHY AND CULTURE, 2(12), 186–190.  
<https://doi.org/10.5281/zenodo.7339056>
- 5.Ахмедова Насиба Ачиловна. (2022). КИЧИК МАКТАБ ЁШИДАГИ ЎҚУВЧИЛАРДА ИЖТИМОЙ КОМПИТЕНТЛИКНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ИМКОНИЯТЛАРИ. EURASIAN JOURNAL OF ACADEMIC RESEARCH, 2(12), 529–532. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7337671>

6.И.Хасанова. (2022). ЁШЛАРНИ КАСБИЙ ФАОЛИЯТГА ТАЙЁРЛАШДА АХБОРОТ ТЕХНОЛОГИЯЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШ. EURASIAN JOURNAL OF ACADEMIC RESEARCH, 2(12), 573–577.  
<https://doi.org/10.5281/zenodo.7337731>

7.www.ziyonet.uz